

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,**  
**CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT FAKULTETI**

**BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI**

**60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligida)” ta’lim yo‘nalishi  
204-205-206 guruh talabalari uchun**

**RAXIMOVA UMIDA RABBIMOVNAning**

**“Moliya asoslari” fanidan**

**“Budget tizimi va budget tuzilmasi” mavzusida ochiq ma’ruza darsining  
ishlanmasi**

**Samarqand – 2025**

**Tuzuvchi:**

U.Raximova – “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasи assistenti.

**Taqrizchilar:**

**X.X.Xikmatov** – TDIU Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasи mudiri dotsenti, i.f.n.

**I.Salamov** – SamDVMCHBU “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasи dotsenti, i.f.n.

**Kelishildi: O‘quv-uslubiy boshqarma  
boshlig‘i, professor v.v.b.**

**R.F.Ro‘ziqu洛ov**

**“Budget tizimi va budget tuzilmasi” mavzusidagi ma’ruzani o‘qitish  
texnologiyasi**

<i>Ma’ruza vaqtি: 2 soat</i>	<i>Talabalar sonи: 63</i>
<i>Ma’ruza rejasи/ o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘zbekiston Respublikasi budget tizimi, uning bo‘g‘inlari</li> <li>2. Budget tizimining asosiy tamoyillari</li> <li>3. Budget tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zar munosabatlar shakllari</li> <li>4. Respublika (markaziy) va mahalliy hukumat organlarining budgetlari</li> </ol>
<i>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</i>	Talabalarga - talabalarga moliya munosabatlarini tashkil etishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari haqida bilimlar berish, ularda davlatning hozirgi davrdagi moliyaviy siyosatining asosiy yo‘nalishlariga mos nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> -nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, moliya nazariyalari va moliyaviy siyosatning mohiyatini, moliya tizimi va moliyaviy boshqaruvning o‘ziga xos jihatlarini, -moliyaviy rejalshtirish va tartibga solishni, moliyaviy nazoratni, davlat budgeti, -budget daromadlari va xarajatlarini, budget tizimi va xalqaro moliyani va tuzilmasi bo‘yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzlucksizlikda o‘rgatishdan iborat.	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> - moliyaning mohiyati va funksiyalarini, moliya tizimi va moliyaviy boshqaruvning o‘ziga xos jihatlarini, davlat budgeti haqida tasavvurga ega bo‘lishi; - moliyaviy resurslarni boshqarish usullari, moliyaviy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari, davlat budgetining optimal modelini ishlab chiqishi ko‘nikmalariga ega bo‘lish; - davlat budgeti ko‘rsatkichlarining prognoz hisob-kitobini tuzish, davlat budgeti ijrosini tahlil etish, moliya tizimi rivojlanishi tendensiyalarini aniqlash hamda ilmiyamaliy tadqiqotlarni o‘tkazish malakasiga ega bo‘lishi kerak.
<i>O‘qitish metodlari</i>	Muammoli ma’ruza, aqliy hujum.
<i>O‘qitish vositalari</i>	Ma’ruza matni, noutbuk, videoproektor va boshq.
<i>O‘qitish sharoiti</i>	Videoproektor bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo‘ljallangan xonalar
<i>Qaytar aloqaning yo‘l va</i>	Og‘zaki nazorat: Blits-so‘rov, test.

**“Budget tizimi va budget tuzilmasi.” mavzusidagi ma’ruzani o‘qitishning  
texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni (Pedagogik texnologiya – muammoli, klaster)	
	O‘qituvchi	Talabalar
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 daq.)	<p>1.1.Mavzuning nomi va rejasi e’lon qilinadi.</p> <p>1.2.Mavzuni to‘liq o‘zlashtirish uchun asosiy va qo‘srimcha adabiyotlar beriladi.</p> <p>1.3. Mavzuda ko‘p ishlataladigan atama va iboralar bilan tanishtiriladi</p> <p>1.4.Mavzu davomida o‘rganilayotgan muammolarga to‘xtalanadi</p>	<p>Tinglaydilar Yozib oladilar Ma’ruza matnini ARMdan (O’UM, darslik, o‘quv qo’llanma) oladilar Ma’ruza bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradilar</p>
2-bosqich. Asosiy (60 daq.)	<p>2.1.Ma’ruza matni tarqatiladi.</p> <p>2.2.Ma’ruza bo‘yicha qo‘yilgan reja savollari keltirilgan taqdimotlar videoproyektor orqali ko‘rsatiladi, har bir savol bo‘yicha xulosa qilinadi hamda “bumerang” usulida savol bilan murojaat qilinadi.</p> <p>2.3.Doskada asosiy faktlar, hisoblash formulalari hamda hisoblash jarayonlari hayotiy aniq misollar ishlab chiqarish bilan bog‘liq holda yozib ko‘rsatiladi</p>	<p>Tinglaydilar Yozib oladilar Muhim joylarini belgilab oladilar Tushunmagan joylaridan savollar berishga tayyorlanadilar</p>
3-bosqich. Yakuniy (10 daq.)	<p>3.1.Ma’ruzada o‘rganilgan mavzu bo‘yicha ko‘tarilgan muammolar va auditoriyaga tashlangan savollar bo‘yicha xulosalar qilinadi</p> <p>3.2. Talabalar qiziqqan va tushunmagan masalalar bo‘yicha savollariga javob oladilar.</p>	<p>Savol beradilar. Vazifani yozib oladilar</p>

## **Ma’ruza mavzusi: Budjet tizimi va budjet tuzilmasi.**

### **Reja**

1. O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi, uning bo‘g‘inlari
2. Budjet tizimining asosiy tamoyillari
3. Budjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar shakllari
4. Respublika (markaziy) va mahalliy hukumat organlarining budgetlari

### **1. O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi, uning bo‘g‘inlari**

Byudjet tizimi: ta’rifi, prinsiplari, boshqarish sohasidagi vakolatlar turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag‘lari oluvchilaryig‘indisini, byudjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini ifodalaydigan, byudjet jarayonida ular o‘rtasida, Shuningdek, byudjetlar hamda byudjet mablag‘lari oluvchilar o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro munosabatlar majmuiga byudjet tizimi deyiladi. Ko‘pchilik hollarda, soddaroq qilib, byudjet tizimi deyilganda mamlakatdagi mavjud byudjetlar to‘plami (majmui) tuShuniladi. Byudjet tizimi mamlakat byudjet tuzilishining tarkibiy qismi bo‘lib, uning ma’lum bir qismini o‘zida ifoda etadi. Shu ma’noda, byudjet tizimi byudjetning o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan bo‘g‘inlarining o‘zaro yig‘indisidan iboratdir. Mamlakatning byudjet tizimi jamiyat-ning siyosiy tuzilishiga (qurilishiga), davlatning iqtisodiy tizimiga va uning ma’muriy-hududiy bo‘linishiga bevosita bog‘liq. U yoki bu mamlakatning byudjet tizimi ikki yoki uch bo‘g‘inli bo‘lishi mumkin. Unitar davlatlar deb yuritiladigan mamlakatlarda byudjet tizimi ikki bo‘g‘indan (markaziy va mahalliy byudjetlar), federativ davlatlar deb yuritiladigan mamlakatlarda esa uch bo‘g‘indan (markaziy byudjet, federatsiya a’zolari byudjetlari va mahalliy byudjetlar) iborat bo‘lishi mumkin.

### **2. Budjet tizimining asosiy tamoyillari**

Har bir mamlakatning byudjet tizimi ma’lum bir prinsiplarga tayanadi. Bunday prinsiplarning tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin:

- byudjet tizimining Yagonaligi;
- byudjet tizimining darajalari o‘rtasida daromadlar va xarajat-laming chegaralanganligi;
- byudjetlarning mustaqilligi; Darsning 18-19-boqlarini yozishda 2000 yilning 14 dekabrida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to‘g‘risida»gi qonuni va unga keyingi yillarda kiritilgan o‘zgarishlar asos qilib olindi.
- davlatning byudjetdan tashqari jamg‘armalari byudjetlari, byudjetlar daromadlar va xarajatlarining to‘liq aks etishi;
- byudjetlarning balansliligi;
- byudjet mablag‘laridan foydalanishning samaradorligi va tejaml iligi;
- byudjet xarajatlarini qoplashning umumiyligi;
- oshkorlik;
- byudjetning haqqoniyligi;
- byudjet mablag‘larining manzilliligi va maqsadli xarakterdaligi. Byudjet tizimining yagonaligi prinsipi huquqiy bazalar, pul tizimi, byudjet hujjatlari shakllari, byudjet

jarayoni prinsiplari, byudjet qonunchilagini buzganlik uchun sanksiyalarning Yagonaligi, mamlakat byudjet tizimi barcha darajalari byudjetlari xarajatlarini moliyalashtirish va byudjet mablag‘lari buxgalteriya hisobini yurgizish tartibining Yagonaligi bilan belgilanadi.

• Byudjet tizimining darajalari o‘rtasida daromadlar va xarajatlarning chegaralanganligi prinsipi tegishli daromadlar turlarini (to‘liq yoki qisman) va xarajatlarni amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarni mamlakatning hokimiyat organlari, mamlak sub’ektlarining hokimiyat organlari va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga biriktirilganligini ko‘zda tutadi. Byudjetlarning mustaqilligi prinsipi qonunchilik va davlat hokimiyatining ijroiya organlari hamda mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining mamlakat byudjeti uning tegishli darajalarida byudjet jarayonini mustaqil amalga oshirish borasidagi huquqlarini bildiradi. Bu prinsipning amal qilishi qonunchilikka muvofiq mamlakat byudjet tizimining har bir darajasida byudjetlar daromadlarining o‘z manbalariga egaligini, byudjetlarning tartibga keltiruvchi daromadlarini, qonui chilikka muvofiq ravishda tegishli byudjetlarning daromadlarini shakllantirish bo‘yicha vakolatlarni, davlat hokimiyat organlari va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining qonunchilikka muvofiq ravishda tegishli byudjetlar xarajatlarining sarflanish yo‘nalishlarini mustaqil aniqlash huquqini qonuniy biriktirilishini, byudjet to‘g‘risidagi qonunlarni ijro etish jarayonida olingan qo‘sishimcha daromadlar, byudjet daromadlarining xarajatlaridan oshgan qismi summalari va byudjet xarajatlari bo‘yicha iqtisod qilingan summalarini olishning mumkin emasligini, byudjet to‘g‘risidagi qonunlaming ijro etilishi jarayonida vujudga kelgan omadlardagi yo‘qotmalar va qo‘sishimcha xarajatlarni byudjet 77 tizimining boshqa darajalari hisobidan kompensatsiya qilishga yo‘l qo‘ymaslikni qonunchilikning o‘zgarishiga bog‘liq holda vujudga kelgan holatlardan tashqari) taqozo etadi. Davlatning byudjetdan tashqari jamg‘armalarida byudjetlarning daromadlari va xarajatlari to‘liq aks etishi, soliq hamda bu boradagi qonunlarga muvofiq belgilangan boshqa majburiy tuShumlari to‘liq hajmda o‘z aksini topishi kerak.

### **3. Budjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar shakllari**

Barcha umumdavlat va mahalliy xarajatlar mamlakat byudjet tizimida o‘z aksini topgan byudjetlari va davlatning byudjetdan tashqari jamg‘armalarining mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Soliq kreditlari, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha kechiktirishlar va muddatlarning o‘zgartirilishi byudjetlar va davlatning byudjetdan tashqari jamg‘armalarining byudjetlari daromadlari va xarajatlari bo‘yicha to‘liq ravishda alohida hisobga olinadi. Byudjetlarning balansliligi prinsipi byudjetda ko‘zda tutilgan xarajatlarning hajmi byudjet daromadlari va uning defitsitini moliyalashtirish manbalaridan tushadigan tuShumlarning jami hajmiga teng bo‘lishi kerakligini bildiradi. Byudjetni tuzish, tasdiqlash va ijro etish jarayonida vakolatli organlar byudjet defitsiti miqdorini mmimallashtirish zarurligidan kelib chiqishlari kerak. Byudjet m ablag‘laridan foydalanishning samaradorliligi va tejamliligi prinsi pining ma’nomazmuni Shundan iboratki, unga muvofiq ravishda vakolatli organlar va byudjet mablag‘larini

oluvchilar byudjetlarni tuzish va ularning ijrosini ta'minlashda, avvalo, ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishda mablag'laming kamroq hajmidan yoki m a'lum bir hajmdagi mablag'lardan foydalangan holda yuqon natijaga erishish zarurligidan kelib chiqishi kerak. Byudjet xarajatlarini qoplashning umumiyligi prinsipi uning barcha xarajatlarini Shu byudjetning barcha daromadlarini umumiy summasi va uning defitsitini moliyalashtirish manbalari hisobidan tushgan tuShumlardan qoplanishi kerakligini anglatadi. Byudjet daromadlari va uning defitsitini moliyalashtirishning manbalaridan tuShumlar byudjetning ma'lum xarajatlari bilan bog'langan bo'lishi mumkin emas (maqsadli byudjet fondlarining daromadlari, maqsadli xorijiy kredit mablag'lari, mamlakat byudjet tizimida boshqa darajadagi byudjetlar mablag'larining markazlashtirish holatlari bundan mustasno). Byudjet tizim idagi oshkorlik prinsipi ochiq m atbuotda tasdiqlangan byudjet va uning ijrosi to'g'risidagi hisobotiami, albatta, e 'lon qilinishini, byudjet ijrosi jarayonida ma'lumotlarning to'liq va to'g'ri berilishini, davlat hokimiyyati qonunchilik organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining qarorlariga oid boshqa ma'lumotlarni olish imkoniyatining yaratilganligini, byudjet loyihasi bo'yicha qarorlami ko'rib chiqish va qabul qilish tartiblarining (jumladan, davlat hokimiyyati qonunchilik organi ichida yoki davlat hokimiyatining qonunchilik va ijroiya organlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni ifodalovchi masalalar bo'yicha ham) jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun albatta, ochiq bo'lishini ko'zda tutadi. Maxfiy moddalarini tasdiqlash, odatda, faqat respublika byudjeti tarkibida amalga oshiriladi. Byudjetning haqqoniyligi prinsipi tegishli hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bashorat ko'rsatkichlarining ishonchli hamda byudjet daromadlari va xarajatlari hisobkitoblarining haqqoniy bo'lishi kerakligini taqozo etadi. Byudjet mablag'larining manzilliligi va maqsadli xarakterdaligi prinsipi byudjet mablag'larini konkret oluvchilar ixtiyoriga ularning aniq maqsadlami moliyalashtirishi oldindan belgilangan holda bo'lib berilishini nazarda tutadi. Byudjetda ko'zda tutilgan mablag'lar manzillilagini yoki yo'nalishini ko'zda tutilmagan maqsadlarga o'zgartirish borasidagi har qanday xatti-harakat mamlakat byudjet qonunchiliginibuzish hisoblanadi.

Mamlakat byudjet tizimini boshqarish sohasida tegishli hokimiyyat organlari alohida vakolatlarga egadirlar. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining byudjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

- Davlat byudjeti loyihasini ishlab chiqilishini tashkil etish va uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taqdim etish;
- Davlat byudjetining ijrosini tashkil etish;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va davlat boshqaruvinining boshqa organlarini Davlat byudjetini ijro etish borasidagi ishlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;
- Davlat maqsadli fondlari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilash;
- Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tasdig'iga kiritish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalgam oshirish. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi va joylardagi davlat hokimiyyat organlari ham byudjet

tizimini boshqarish sohasida bir necha vakolatlarga ega. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organlari uchun bu borada quyidagi vakolatlar xosdir:

- tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetini va mahalliy byudjetlarni qabul qilish, Shuningdek, ularning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlami tasdiqlash;
- qonun hujjatlariga muvofiq mahalliy byudjetga tushadigan mahalliy soliqlar, yig‘imlar va to‘lovlar miqdorlarini hamda ular bo‘yicha imtiyozlarni belgilash;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalgam oshirish. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi va tegishli hokimiyatlar esa:
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar loyihamalarini tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘I Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organlari qabul qilishi uchun taqdim etish hamda ularning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlami tuzish;
- byudjetga tuShumlarning to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda uning mablag‘laridan belgilangan maqsadda foydalanilishi ustidan nazoratni tashkil etish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalgam oshirishi mumkin. 0 ‘z navbatida, mamlakat byudjet tizimini boshqarishda 0 ‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi muhim rol o‘ynab, u bu sohada quyidagi vakolatlarga egadir:
- davlat byudjeti loyihasini tayyorlash;
- davlat byudjeti mablag‘larining tuShumi va sarfi tartibini belgilash hamda ular ustidan nazoratni amalga oshirish;
- respublika byudjeti xarajatlarini amalga oshirish;
- byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini ro‘yxatdan o‘tkazish;
- byudjetdan mablag‘ oluvchilarining davlat byudjeti mablagiaridan foydalanishini tartibga soluvchi me’oriy-huquqiy hujjatlarni, Shuningdek, umummajburiy tusdagi boshqa me’oriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalgaoshirish.

#### **Test topshiriqlari:**

1.«Moliya» tushunchasi ilk bor qaysi davlatda paydo bo‘lgan?

A.Germaniyada

B.Fransiyyada

C.Italiyada

E.Buyuk Britaniyada

2.Moliya munosabatlarida nechta subyekt ishtirok etadi?

A.2 subyekt – 2 xo‘jalik yurituvchi subyektlar

B.2 subyekt – xo‘jalik yurituvchi subyekt va davlatning vakolatli organi

D.3 subyekt ishtirok etadi

E.4 xo‘jalik yurituvchi subyekt ishtirok etadi

3.Moliyaning yuzaga chiqishida asosiy omil nima hisoblanadi?

A.mehnat unumdarligining oshishi

B.yirik shaharlarning yuzaga kelishi

D.markaziy davlatning tashkil etilishi

E.aholi sonining o'sishi

4.O'zbekiston Respublikasida Pensiya jamg'armasi daromadini shakllantirishda qaysi daromad manbai asosiy salmoqqa ega?

- A.Yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar
- B.fuqarolarning majburiy sug'urta ajratmalar
- C.tovarlar realizasiyasi xajmidan ajratmalar
- D.boshqa daromadlar

5.Moddiy boylikni mikrodarajada taqsimlanishda pul mablag'larining jamg'armalari shakllanadi?

- A.davlat byudjeti
- B.byudjetdan tashqari jamg'armalar
- C.sug'urta jamg'armalar

E.xo'jalik yurituvchi subyektlarning turli pul jamg'armalari

6.Milliy daromadni makrodarajada taqsimlanishda qanday pul mablag'larning fondlari tashkil etiladi? A.byudjetdan tashqari jamg'armalar

- B.sug'urta jamg'armalar
- C.davlat byudjeti

E.xo'jalik yurituvchi subyektlarning turli pul jamg'armalari

7.Moliyaning funksiyalarini?

- A.taqsimlash va qayta taqsimlash
- B.taqsimlash va rejallilik
- C.taqsimlash va iqtisodiy rag'batlantirish
- D.taqsimlash va nazorat

8.O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlari tarkibida qaysi xarajatlar guruhi eng yuqori salmoqga ega?

- A.ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlari
- B.iqtisodiyot xarajatlari
- C.harbiy xarajatlari

E.davlat boshqaruvi bilan bog'liq xarajatlar

9.Moliyani paydo bo'lishiga ta'sir etgan asosiy omilni tanlang?

- A.jamiyatning paydo bo'lishi
- B.davlatning vujudga kelishi
- C.korxonalarning paydo bo'lishi
- D.armiyaning vujudga kelishi

10.Moliya termini ilk bor umumiqtisodiy kategoriya sifatida nechanchi asirlardan boshlab, qaysi rivojlangan savdo shaharlarida ishlatalib, dastlabki davrlarda har qanday pul to'lovlar «moliya» deb yuritila boshlandi? A.12-14 asrlardan boshlab Amerikaning

- B.11-12 asrlardan boshlab Germaniyaning
- C.13-15 asrlardan boshlab Italiyaning
- D.16-19 asrlardan boshlab Angliyaning

### Takrorlash uchun savollar:

1. Byudjet daromadlarining shakllanish manbalari va tarkibi
2. Byudjet jarayoni va uning bosqichlari

3. Byudjet tizimini boshqarish
4. Byudjet tizimning asosiy prinsiplari

## TAQDIMOTLAR

### **“Insert” texnikasi bilan ishlash qoidasi**

1. Ma’ruzalar matnnini o’qing va o’qigan betlardagi qatorlarning yon chetlariga quyidagi belgilarni qo’yib borib ushbu usulni qo’llang:

- V - bilgan bilimlarimga mos (ma’lumotlar) to’g’risida
- (minus) - bilgan bilimlarimga qarama-qarshi bilimlar to’g’risida
- + (plus) - bilgan bilimimga nisbatan yangi ma’lumot hisoblanadi

2. Olgan bilimlaringiz to’g’risidagi ma’lumotlarni jadval shaklida tizimlashtiring:

Mavzu savollari	V	-	+	?
1.				
2.				
3.				

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

<b>Asosiy adabiyotlar</b>	
1.	T. Malikov., Moliya:nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma -Toshkent 2020
2.	Vahobov A.V., Malikov T.S., Moliya. Darslik. -Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2011.
<b>Qo‘srimcha adabiyotlar</b>	
1.	Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik.
2.	Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezhulik va bunyodkorlik
3.	Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.
4.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagи “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5696 son Farmoni.
5.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagи “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-187-son qarori.
6.	O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida. 2021-yil 30-dekabr, O‘RQ-742-son.
7.	O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. O‘zbekiston Respublikasining budget kodeksi. 21.04.2021 yil, O‘RQ-683-son.
8.	Ataniyazov J.X. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. -Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.
9.	Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. -Toshkent: “Noshir”, 2012.
10.	Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2017.
11.	Н.Ю. Исакова .ФИНАНСЫ. Учебник. Екатеринбург Издательство Уральского университета 2019.
<b>Axborot manbaalari</b>	
1.	<a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a> -O‘zbekiston Respublikasi hukumat portal.
2.	<a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a> -O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari Ma’lumotlari milliy bazasi
3.	<a href="http://www.soliq.uz">www.soliq.uz</a> . O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi

